

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVINING AHAMIYATI

Atashova F.D.

Qoraqalpoq davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Ashirov Diorbek

Qoraqalpoq davlat universiteti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ma’lumki, shu paytgacha chet tilini mukammal biladigan inson deyilganda lug‘at boyligi katta, grammatik qoidalarni yetarli darajada biladigan, tildagi to‘rtta ko‘nikmada (gapirish, yozish, o‘qish, tinglash) yetarlicha bilimga ega inson tushunilgan. Ammo so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganuvchi xorijiy tilni o‘rganishda yuqoridagi kabi kompetensiyalardan tashqari madaniyatshunoslik elementlaridan ham xabardor bo‘lishi talab qilinadi. Ushbu maqola chet tillarini o‘rgatishda madaniyatshunoslik yondashuvining roliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda madaniyatning til o‘qitish va o‘rganish jarayonidagi qanchalik ahamiyatli ekanligi tushuntiriladi. Shuningdek, madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘qitishda nimalarga e’tibor berish kerakligi, qanday til o‘qitish usullaridan foydalanish zarurligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Til, madaniyat, chet tillari, metodlar va yondashuvlar, muloqot, lingvistik kompetensiya.

KIRISH

So‘nggi yillarda davlatlar o‘rtasidagi xalqaro munosabatlar rivojlanib borayotgani sayin chet tillarini o‘rganish va o‘qitish yanada muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bugungi kunda xorijiy tilni mukammal bilgan kishi dunyoni yaxshiroq anglashi, munosib kasbni egallashi, kommunikativ imkoniyatlarining kengligi bilan farq qiladi. Shularni hisobga olgan holda, mamlakatimizda chet tillarini o‘qitish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezident Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-5117-sonli qarori qabul qilinishi sohada tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Shuning bilan birgalikda chet tillarini o‘qitishda malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, o‘qitish tizimini modernizatsiyalash, yangicha metodlar ishlab chiqish ham dolzarb hisoblanadi. [11]

ASOSIY QISM

Bugungi kunda xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida “Grammatik tarjima metodi” (Grammar translation method), Kommunikativ metod (Communicative method), Funktsional til o‘qitish (Functional language teaching) kabi uslub va yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Ammo bu kabi yondashuvlar bilan tilni yetarli darajada o‘qitib bo‘lmaydi [4,151]. Yuqoridagi metodlar bilan birgalikda madaniyatshunoslik yondashuvi asosida chet tillarini o‘qitish o‘quvchilarning til o‘rganish samaradorligini oshirishi mumkin, chunki madaniyatdan ayro holda faqatgina grammatik qoidalar va nazariy bilimlarni o‘zlashtirib o‘zga tilni o‘rganish qiyin. Badhan Rashidning fikriga ko‘ra, “Madaniyat - til, til esa madaniyatdir” [3]. Bu haqda baxs yuritishdan oldin madaniyat tushunchasi ta’rifiga to‘xtalsak. Madaniyat murakkab va tarixiy hodisa bo‘lib, har bir fan o‘ziga xos tarzda madaniyat tushunchasini yaratadi. Shu tufayli hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda uning 250 dan ortiq ta’rifi uchraydi [1,15]. Quyida ularning ayrimlari bilan tanishamiz:

1. Madaniyat - keng ma’noda kishining jamiyat a’zosi sifatida o‘zlashtirgan bilimi,

e’tiqodi, san’ati, axloq-odobi, qonun-qoidalari va boshqa bir qator qobiliyatlari va odatlarini o‘z ichiga olgan murakkab bir butunlik [8].

2. Madaniyat - jamiyat, inson ijodiy kuchi va qobiliyatlari taraqqiyotining muayyan darajasi kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarida ifodalanadi [7,41].

Til va madaniyat o‘rtasida g‘oyatda ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini bugungi kun tilshunoslari ta’kidlashmoqda. Jumladan, M.U.Ibrohimovanning fikricha, “Til va madaniyat tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bir-biridan ajratilmaydi. Chunki tilning o‘zi madaniyatdir” [6,700]. Tilshunos Sapir va Wharflarning fikricha esa, aynan madaniy xilma-xilliklar sabab tillar bir-biridan farq qiladi, bir tilda mavjud bo‘lgan narsa boshqasida topilmaydi [12]. Shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati haqida yetarlicha tushunchaga ega bo‘lmaslik ayni shu tilning yetarli darajada o‘rganilmasligiga sabab bo‘ladi. Boisi har qanday tilni o‘rganish o‘sha xalqning urf-odatlarini, an’analarini va asosiysi yashash tarzi bilan tanish bo‘lishni ham taqazo etadi. Bu xususda Bada quyidagi fikrni bildirgan edi: “Aksariyat til o‘rganuvchilarning madaniyatshunoslik tog‘risida tushunchaga ega bo‘lmasligi tufayli mahalliy so‘zlashuvchilar bilan muloqotda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi” [2,6]. Darhaqiqat, xorijiy tilda puxta bilimli bo‘lish uchun lingvistik kompetensiyaning o‘zi yetarli emas. Lingvistik bilimlarni egallash orqali biz to‘g‘ri gaplar tuza olishimiz, grammatik xatolarsiz gapira olishimiz mumkin, ammo shunday vaziyatlar bo‘ladiki, bu paytda madaniyatshunoslik elementlaridan xabardor bo‘lmasdan turib to‘g‘ri muloqot qilish imkonsiz. Masalan, odamlarga murojaat qilish, iltimos qilish, ruxsat

so‘rash, minnatdorchilik bildirish, kimningdir fikriga qo‘shilish yoki qarshi bo‘lish uchun madaniy normalardan boxabar bo‘lish talab qilinadi. Ba’zi xalqlar madaniyatida tabu bo‘lib hisoblanadigan so‘zlar, iboralar yoki mavzular boshqa bir madaniyat vakillari uchun muvofiq so‘zlashuv turi bo‘lib hisoblanishi mumkin. Fikrimizni quyida berilajak o‘zbek madaniyatining bir qismi bo‘lmish salomlashuv jarayoni

bilan tushuntirsak.

- *Assalomu alaykum! Qalay bardammisiz?* -

Xudoga shukr! -

Nevaralar yaxshimi? Xayrunisabonu eson-omonmi? Kelin yaxshi yuriptimi? Oy-kuni yaqinlashayotgandir?

O‘zbek madaniyatiga xos bu salomlashish turida so‘zlashuvchilar bir-birining hol-ahvolidan tortib, oila-a‘zolari, nevaralarigacha so‘rash odat tusiga kirganligini ko‘rishimiz mumkin va bu keyin davom etadigan suhbat jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo ingliz madaniyati, shu jumladan g‘arb madaniyati uchun bu kabi salomlashish uslubi yot bo‘lib, ular uchun bu g‘alati tuyuladi va oqibatda sog‘lom kommunikatsiya muhitiga putur yetadi. Fikrimizni yana bir misol bilan oydinlashtirsak. Ko‘z bilan muloqot qilish (eye-contact) ingliz madaniyati vakillari uchun muhim sanaladi va muloqot paytida tinglovchining so‘zlovchi ko‘ziga tikilib qarashi uning so‘zlovchi nutqiga e’tibor berayotgani va suhbatga befarq emasligini anglatadi [10]. Aksincha, turkiy xalqlar madaniyatida ko‘zga tik qarab so‘zlash yoshi katta so‘zlovchiga nisbatan odobsizlik va hurmatsizlik sanaladi. Yuqoridagi

misollardan ko‘rinib turibdiki, chet tilini o‘qitish mobaynida o‘quvchilarga tili o‘rganilayotgan xalq madaniyati haqida ham tushunchalar berish tilni mukammal o‘rganishga olib keladi. Bunda madaniyat til o‘qitish jarayonining muhim bir qismi sifatida qaralishi lozim. Shunday bo‘lsa-da, bugungi kunda til o‘qitishda to‘rtta ko‘nikmaga (gapirish, yozish, tinglash, o‘qish) asosiy urg‘u qaratilmoqda va madaniyatni o‘qitish ko‘p hollarda bir chetda qolib ketmoqda. Lingvist Byram chet tilini o‘qitishda uchta maqsadni qamrab olishni tavsiya qilgan[5,87]:

- kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish; -

til bilimini rivojlantirish;

- madaniyatshunoslikka aloqador bilimlarni rivojlantirish.

Bundan ko‘rinib turibdiki, xorijiy til madaniyatini o‘rganish va undan dars davomida keng foydalanish g‘oyat muhim. Ammo lingvistik bilimlarni o‘rgatish bilan birgalikda madaniyatshunoslik yondashuvini ham qamrab olish uchun nimalarga e’tibor berish kerak? Birinchidan, asl materiallardan (authentic materials) foydalanish zarur, chunki ular sun’iy ravishda til o‘qitishga moslashtirilmagan bo‘lib, ayni real hayotda sodir bo‘lgan voqealarni qamrab oladi. Bularga gazeta va jurnallar, televideniya shoulari, filmlar, ko‘rsatuvlar va shu kabi boshqa mahalliy tilda

so‘zlashuvchilarga mo‘ljallangan materiallarni misol qilib keltirish mumkin. Ikkinchidan, tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyotini o‘rganish ham bu borada munosib yechim bo‘la oladi. Sababi badiiy adabiyot madaniyat bilan uzviy bog‘liq va u xalqning qanday fikrlashi, yashash tarzi haqida qimmatli ma‘lumot beroladi. Valdes ham adabiyotning madaniyatni anglashda muhim manba ekanligini ta‘kidlaydi [9,113-147]. Uchinchidan, rolli o‘yinlar bilan bog‘liq mashg‘ulotlarni olib borish ham o‘quvchilarda xorijiy til madaniyati bilan bog‘liq bilimlarini oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tilini mukammal o‘rganish uchun nafaqat katta lug‘at zahirasi, kommunikativ va lingvistik kompetensiyalarga ega bo‘lish kerak, balki ularga qo‘shimchaga ravishda madaniyatshunoslik elementlaridan ham xabardor bo‘lish zarur. Boisi madaniyatlar xilma-xilligi tillar o‘rtasida sezilarli farqlarni keltirib chiqaradi. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘qitishdan asosiy maqsad esa o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot davomida qiyinchiliklarsiz, hech qanday chigalliklarsiz kechadigan sog‘lom kommunikatsiya ko‘nikmasini hosil qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Abdullayev.M, Umarov.E. Madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent - 2006. B.15
2. Bada.E. Culture in ELT. Cukurova university journal of social sciences. 2000. B.6
3. Badhan Rashid. Cuture some definitions. www.academia.edu
4. Bunyamin Celik, Yunus Yildiz. The role of foreign language culture on teaching the language and learner motivation. International journal of social sciences&educational studies. 2019. - Vol.5, No.4. B.151
5. Byram.M. Teaching and assessing intercultural communicative competence. Multilingual matters. 1997. B.87
6. Ibrohimova.M.U. Xorijiy tillarni o‘qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish ahamiyati. International scientific-practical conference on the topic of “Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages”. www.oriens.uz. 2022. B.700
7. Jo‘rayeva.L. Til, millat va madaniyat munosabati. India international scientific online conference. B.41
8. Tayler.R.W. Basic principles of curriculum and instruction. 1870. University of Chicago press.
9. Valdes.J.M. Culture in literature. Cambridge University Press. 1986. B.137-147
10. Eurac.com internet sayti
11. Lex.uz internet sayti
12. www.sciencedirect.com